8«11»2022 yil. **102-3-45-OB/2022-son**

# PUDRAT SHARTNOMASI

G'allaorol tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi urinlarda **«Buyurtmachi»** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari X.Mamaraximov, bir tomondan, va **"SANGZOR PROJECT INVEST" MCHJ** (keyingi urinlarda **«Ijrochi»** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor Quvondiqov S.X ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## 1. SHartnoma predmeti.

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi Buyurtmachining topshirig'ida belgilangan shartlarga muvofiq **Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyiha smeta va ekspertiza hujjatlarini tayyorlash** bo'yicha amaldagi qonunchilik talablariga javob beradigan va foydalanish uchun yaroqli bo'lgan shaharsozlik hujjatlarini (bundan keyingi matnlarda "Loyiha" deb nomlanadi) ishlab chiqish majburiyatini, Buyurtmachi esa texnik topshiriq va birlamchi ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lash majburiyatini zimmasiga oladi

1.2. Xizmatlar kursatish muddati:

Ishning boshlanishi: 2022 yil oktyabr oyi;

Ishni yakunlash: 2022 yil noyabr oyi.

## 2. SHartnoma bo'yicha ishlar qiymati va hisob-kitoblar tartibi.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar qiymati tanlov komissiyasining 2022 yil 2-noyabrdagi № 52 -sonli majlis bayonnomasi qaroriga asosan QQS bilan 34 **000 000,00 (O'ttiz to'rt million)**so'mni tashkil etadi.

2.2. Ishlar qiymati ochiqdir. O'zbekiston Respublikasining Hukumati qaroriga asosan hamda vaziyatlar, materiallar narxlari, ishga haq to'lash shartlari tubdan o'zgarganda va boshqa xarajatlar tufayli ishlar qiymati mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim tuzish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin.

2.3. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar qiymatini to'lash Buyurtmachi tomonidan Ijrochining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- mazkur shartnoma imzolangandan keyin bir oy davomida ishlar qiymatidan 30% oldindan to'lov;
- keyingi to'lovlar – bosqichma-bosqich, Loyihani qabul qilish-topshirish yuk xati imzolangandan so'ng 60 kun davomida, Loyihani asoslangan rad etish xati yo'q bo'lgan taqdirda.

2.4. Buyurtmachi moliya organi tomonidan moliyalashtirish ochilmaganligi sababli oldindan to'lovni o'tkazish majburiyatini bajarmasa, Ijrochi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

2.5. Mazkur ish turlariga moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag moliyalashtirilmagan takdirda «Buyurtmachi» tulov uchun majburiyatni zimmasiga olmaydi.

## 3. Ishlarni topshirish-qabul qilish tartibi.

3.1. Ob'ekt bo'yicha loyihalash ishlarini boshlash sanasi sifatida quyidagi talablarni bajarish sanasi hisoblanadi:

3.1.1. Loyihalashga topshiriqni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash va kelishib olish;
3.1.2. Tasdiqlangan loyihalashga topshiriqga hamda loyihalash ishlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarga muvofiq buyurtmachi loyihalash uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlarni taqdim qilishi;
3.1.3. Tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimcha yozma bitim tuzish yo'li bilan yuqoridagi talablarni bajarish uchun ketadigan vaqtga mutanosib ravishda loyihalash ishlarini bajarish kalendar muddatlari surilishi mumkin.
3.2. Ishlar tugallangandan so'ng Ijrochi tayyor Loyihani yoki uning qismini Buyurtmachiga yuk xati bo'yicha topshiradi, loyihalashga topshiriq va mazkur shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan Loyihani topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim qiladi.
3.3. Buyurtmachi Loyihani olganidan keyin quyidagilarni amalga oshirishga majbur:
3.3.1. Loyihani topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolaganidan keyin 30 kun davomida Loyihani olish yoki olishni rad etish va Ijrochiga rad etish sabablari ko'rsatilgan xatni yuborish;
3.3.2. Loyihani olishni rad etish sabablari ko'rsatilgan xat Ijrochiga yuborilgandan so'ng ikkitomonlama dalolatnoma yoki qo'shimcha yozma bitim tuziladi. Qo'shimcha yozma bitimda loyihadagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlari ro'yxati va ularni bajarish muddatlari ko'rsatiladi.
3.3.3. Buyurtmachi Loyihani olishdan bosh tortsa (Loyihani topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamasa), rad etish sabablari ko'rsatilgan xatni Ijrochiga yubormasa, Loyiha Buyurtmachiga taqdim etilgan vaqtdan boshlab unga topshirilgan hisoblanadi.
3.3.4. Agar Buyurtmachi Loyihani tekshirmasdan qabul qilgan bo'lsa, keyinchalik Loyihada shartnomadan chetlanishlar yoki boshqa kamchiliklar borligini aniqlasa, bunday kamchiliklarni Loyihani qabul qilayotganda aniqlash imkoniyati bo'lmasa (yashirin kachiliklar), bunday holatda Buyurtmachi kamchiliklar aniqlangandan keyin Ijrochini 10 kun muddatda yozma ravishda ogohlantirishi va kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etilishini talab qilishi kerak.

## 4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

4.1. Buyurtmachining majburiyatlari:
4.1.1. Loyihani tayyorlash uchun zarur bo'ladigan loyihalashga topshiriq va birlamchi ma'lumotlarni Ijrochiga taqdim qiladi.
4.1.2. Mazkur shartnomada belgilangan miqdor va tartibda ishlar qiymatini Ijrochiga to'lab beradi.
4.1.3. Ijrochidan olingan loyihadan faqat mazkur shartnomada ko'zda tutilgan maqsad uchun foydalanish, loyihani uchinchi shaxslarga bermaslik va Ijrochining roziligisiz undagi ma'lumotlarni oshkora qilmaslik.
4.1.4. Zarurat tug'ilganda loyihani tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishish uchun Ijrochini jalb etish.
4.1.5. Birlamchi ma'lumotlarni o'zgartirish yoki Ijrochiga bog'liq bo'lmagan boshqa vaziyatlar tufayli paydo bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni qoplash (mazkur masala yuzasidan tomonlar dastlab o'zaro kelishib va qo'shimcha bitimni imzolashgandan so'ng).
4.1.6. Tayyor loyihaning kamchiliklari sababli uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga taqdim qilingan da'vo bo'yicha jarayonda ishtirok etish uchun Ijrochini jalb qilish.

4.2. Ijrochining majburiyatlari

4.2.1. Loyihani ishlab chiqish uchun Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan loyihalashga topshiriq va birlamchi ma'lumotlardagi talablarga rioya etish, ularga muvofiq va o'zi shaxsan loyihalash ishlarini bajarishi, belgilangan tartibda mualliflik nazoratini olib borish va har 15 kun muddatda muntazam ravishda Buyurtmachiga ma'lumot berish;

4.2.2. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda xato va kamchiliklar borligi aniqlansa, Buyurtmachini shu to'g'risida zudlik bilan o'rnatilgan tartibda ogohlantirish, Buyurtmachidan ko'rsatmalar olinguncha ishni to'xtatish. Buyurtmachini o'z vaqtida ogohlantirmagan Ijrochi kelgusida Buyurtmachi tomonidan da'vo qilinganda hujjatlarda xato va kamchiliklar borligini ro'kach qilmasligi kerak.

4.2.3. Loyihani tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishishda Buyurtmachi bilan birgalikda ishtirok etish.

4.2.4. Mazkur shartnomada belgilangan muddatda sifatli, qurilish me'yorlari va qoidalari talablari va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibini belgilaydigan boshqa qonunchilik hujjatlariga javob beradigan tayyor Loyihani Buyurtmachiga topshirish.

4.2.5. Loyiha ishlab chiqilishini uchinchi shaxslarga bermaslik.

4.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. Loyihadan foydalanish davomida unda kamchiliklar borligi aniqlansa, Ijrochidan quyidagilarni talab qilish:

- Ijrochi Loyihadagi kamchiliklarni o'z hisobidan talab qilinadigan muddatlarda bartaraf qilishi;
- shartnomaviy qiymatni shunga muvofiq miqdorda kamaytirish;
- Ijrochi Loyihadagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaganligi sababli Buyurtmachining paydo bo'lgan moliyaviy zararlarini qoplash;
- Loyihadagi kamchiliklar jiddiy va ularni bartaraf qilish imkoniyati yo'q bo'lsa, Buyurtmachi shartnomani bekor qilishi va barcha ko'rilgan moliyaviy zararlar qoplanishini Ijrochidan talab qilish.
- «Ijrochi» tashkilotning aybi bilan loyiha hujjatlariga qo'shimcha ish xajmlari va xarajatar aniqlangan taqdirda «Uzdavarxitektqurilish» qo'mitasining 24.06.2008 yilgi 50-sonli buyrugi bilan tasdiqlangan SHNK 1.03.01-08 ning 1.13.-bandi 3-xatboshiga asosan Bajaruvchiga to'langan summa to'lik Davlat byudjeti foydasiga olib qo'yiladi.

4.4. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

4.4.1. Buyurtmachining yozma ruxsati bilangina loyihalashtirishga topshiriq va birlamchi ma'lumotlardagi talablardan chekinish.

## 5. Tomonlar javobgarligi.

5.1. Tomonlar mazkur shartnomadagi majburiyatlarini bajarmaganlari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgardirlar.

5.2. Loyiha Buyurtmachi tomonidan qabul qilingandan keyin Ijrochi kafolatli muddat davomida 10 (o'n) yil Loyihaning dastlabki kamchiliklari va Loyihadan foydalanish mobaynida aniqlangan kamchiliklari uchun javobgardir. SHuningdek, ushbu kamchiliklarni o'z hisobidan bartaraf qilishi, agar kamchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati bo'lmasa, Buyurtmachining zararlarini to'lab berishi kerak.

5.3. Ijrochi Loyihadagi kamchiliklar uchun (ushbu kamchiliklar aniqlangan vaqtga bog'liq bo'lmagan holda) quyidagi hollarda javob bermaydi:

- Buyurtmachi Ijrochi bilan kelishib olmasdan loyihalash mobaynida Loyihaga qo'yilgan talablardan chekinsa yoxud loyihalashga topshiriqdagi birlamchi ma'lumotlarni o'zgartirsa;

5.4. Moliya organi tomonidan moliyalashtirish ochilgan bo'lsa ham Buyurtmachi loyihalash ishlarini o'z vaqtida moliyalashtirmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun o'tkazilmagan to'lov summasidan 0,4 % miqdorida penya to'laydi, lekin penya miqdori o'z vaqtida o'tkazilmagan to'lov summasining 50 % dan oshmasligi kerak.

5.5. Ijrochi loyihalash ishlarini o'z vaqtida bajarmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun bajarilmagan ishlar summasidan 0,5 % miqdorida penya to'laydi, lekin penya miqdori o'z vaqtida bajarilmagan ishlar summasining 50 % dan oshmasligi kerak.

5.6. Penya va zararlarni to'lash shartnomani buzgan tarafni shartnomadagi majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5.7. Tomonlar moliyaviy majburiyatlarni zimmalariga olmagan sharti bilan, birinchi tomon ikkinchi tomonni 30 kun avval yozma ravishda ogohlantirib, mazkur shartnomani muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

5.8. SHartnoma muddatidan ilgari bekor qilingan holda, shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan tomon ikkinchi tomonga mazkur shartnoma bo'yicha ishlar qiymatidan 10 % miqdorida jarima (neustoyka) to'laydi.

## 6. SHartnomani o'zgartirish va tugatish.

6.1. Mazkur shartnomaning 10.1-punktida ko'rsatilganidek, shartnoma muddati tugashi bilan tomonlarning shartnomadagi majburiyatlari tugaydi.

6.2. Tomonlar o'rtasidagi yozma kelishuviga asosan shartnoma o'zgartirilishi yoki muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

6.3. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim yoki kelishmovchilik bayonnomasi ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolanganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

6.4. Qonunchilikda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda ham mazkur shartnoma o'zgartirilishi yoki tugatilishi mumkin.

6.5. SHartnoma kuchda bo'lishini tugatish tomonlarni shartnomani buzganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 7. Nizolarni xal etish.

7.1. Mazkur shartnomaning matnida echimini topmagan masalalar bo'yicha tomonlar o'rtasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizolar va turli talqinlar amaldagi qonunchilik asosida muzokaralar o'tkazish yo'li bilan xal etiladi.

7.2. Muzokaralar o'tkazish yo'li bilan nizolar xal etilmasa, o'rnatilgan tartibda nizolar Jizzax tumanlararo iktisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 8. Fors-major.

8.1. Ko'zda tutilmagan va kelib chiqishini bartaraf etib bo'lmaydigan favqulodda xususiyatga ega fors-major vaziyatlari paydo bo'lganda tomonlar mazkur shartnomadagi majburiyatlarini bajarmaganlari uchun javobgar emasdirlar.

Favqulodda vaziyatlar sifatida quyidagilar tushuniladi: tabiiy talofatlar, yong'in, suv toshqini, shtorm, urush va urush harakatlari, qamallar, qo'zg'olonlar, sabotaj, millatchilik

tusga ega g‘alayonlar, embargo, davlat organlarining ta’qiqlashlari va shartnoma tuzilganidan keyin paydo bo‘lgan tomonlar nazoratidan tashqaridagi boshqa vaziyatlar.

8.2. Fors-major vaziyatlari paydo bo‘lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatlari butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta’sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

## 9. Boshqa shartlar.

9.1. Mazkur shartnoma viloyat G‘aznachilik boshqarmasidan elektron tarzda ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 nusxada tuzildi. bitta nusxasi Buyurtmachida, bitta nusxasi Ijrochida saqlanadi.

## 10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

10.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o‘ziga nisbatan qo‘llaniladigan barcha, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

10.2. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo‘lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Bajaruvchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta’minotchi korxonaning hamda O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat’iy rioya etish majburiyatini oladi.

## 11. Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari:

**BUYURTMACHI:**

**G‘allaoro tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**
Manzil: G‘allaorol tuman. G‘.G‘ulom MFY. CHorog‘on ko‘chasi 28 uy
SH/x: 401722860082097045204110007

INN: 201 030 749, MFO 00014 OKED: _____
O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G‘aznachiligi
x/r: 2340 2000 3001 0000 1010
Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shaxar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)
MFO 00014 INN 201129919

**Raxbar** __________ **X.Mamaraximov**

**IJROCHI:**

**"SANGZOR PROJECT INVEST" MCHJ**
Manzil; Jizzax sh. A.Navoiy kuch 12 a uy
Tel: +99855 151 71 15, 99 561 33 20
x/r; 2020 8000 7007 8577 0001
INN: 304961108
Bank: Aloka bank Jizzax f/l
MFO: 00401

**Direktor:** __________ **Quvondikov S.X**

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

| | |
|---|---|
| Imzolovchi F.I.SH. | XANDAMIR MAMARAXIMOV ISKANDAROVICH |
| Imzolangan sana | 08.11.2022 08:57 |
| Hujjat kodi | **HP2224444062** |
| Hulosa kodi | **MR6832814431** |

G'ALLAOROL TUMANI HOKIMLIGI "OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"
HP2224444062

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

MR6832814431

1. <u>Loyihaning turi</u> : Shartnoma.

2.<u>Loyihaning nomi:</u> G'allaorol tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (**Buyurtmachi**) va "SANGZOR PROJECT INVEST" MCHJ (**«Ijrochi»**) lar o'rtasida **G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyiha smeta va ekspertiza hujjatlarini tayyorlash** to'g'risidaga qiymati 34000000 (o'ttiz to'rt million) so'mlik pudrat shartnomasi. <u>Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.</u>

3. <u>**Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**</u> G'ALLAOROL TUMANI HOKIMLIGI "OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" tomonidan 03.11.2022 yilda kiritilgan.

**Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.**

**G'allaorol tumani yuridik markaz bosh yuristkonsulti:** **E.U.MUHAMADIYEV**

07.11.2022

"T A S D I K L A Y M A N"
G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i : tanlov komissiyasi raisi:

_________ X.Mamaraximov

2022 yil «02» noyabr

**G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasining Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** buyicha shartnomalar tuzish uchun ichki tanlov utkazish komissiyasining

**M A J L I S   B A Y O N N O M A S I № 52**

«02» noyabr 2022 yil — Gallaorol shaxri

G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'ining 2022 й. «28» iyundagi № 2022-855-3-45-OB - sonli buyrugi bilan tasdiklangan ichki tanlov komissiyasi azolari kuyidagi tartibda

**Q A T N A SH D I L A R:**

KOMISSIYA AZOLARI:

| | |
|---|---|
| 1.G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'I komissiya raisi | (X.Mamaraximov) |
| 2."G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi bosh muxandisi | (I.Mallaev) |
| 3. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi texnik muxandisi | (X.Soliev) |
| 4. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi infratuzilma ob'ektlaridan foydalanish bo'lim boshlig'i | (M.Egamqulov) |
| 5. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi bosh xisobchisi | (J.Aralov) |
| 6. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi ombor mudiri | (M.Raxmatullaev) |

**K U N T A R T I B I:**

1. **Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** tan narxi va muddatlari buyicha eng makbul tanlov taklifini va golibini aniklash. **LOT № 167945 28.10.2022 yil summasi 35 000 000 sum.**
2. **Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** ishlarini bajarish buyicha tanlovda ishtirok etish uchun kuyidagi pudratchi tashkilotlar ishtirok etish istagini bildirgan tashkilotlar:

1 **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ**
2. **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati**
3. **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ**

Talabgorlar tomonidan tanlovga takdim etilgan xujjatlar tugri rasmiylashtirilganligi, tuzilganligi va tulik xajmdatulik takdim etilganligi aniklandi.
**G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** buyicha talabgorlar tomonidan takdim etilgan takliflarni tanlov ishtirokchilariga ukib

eshittirildi. shu munosabat bilan baxolash komissiyasi azolari talabgorlar takliflarini urganib chikayotganda, bu takliflar amalga oshirishi mumkinligini va asoslanganligiga etibor berishlari lozimligi takidlandi.

28.10.2022-yildagi **№ 167945** sonli davlat buyurtmasi tomonidan rasmiylashtirilgan kundan davlat haridlarining elektron tizimida 2 ish kuni muhokama qilish mobaynida tanlash ishtirokchilari tomonidan e'tirozlar kelib tushmagan va harid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Komissiya azolarining fikr-muloxazalarini eshitib va urganib chikkan xolda baxolash komissiyasi

QAROR QILADI:

Tanlov golibining taklifiga kura . **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** tomonidan **Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** buyicha qiymati joriy narxlarda 34 000 000.00 so'm, ishlarni tulik bajarish muddati 15 kun.

Tanlov golibining taklifiga kura **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** bilan **Jizzax viloyat G'allaorol tuman Solin QFY Kichiksoy va Tollisoy qishlog'ining 2.650 km ichki yo'llarini asfalt qilish maqsadida loyixa smeta va ekspertiza xujjatlarini tayyorlash** ishlarini bajarish buyicha xizmat ko'rsatish shartomasi tuzilsin
.

KOMISSIYA AZOLARI:

1.G'allaorol tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'I komissiya raisi (X.Mamaraximov)

2."G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi bosh muxandisi (I.Mallaev)

3. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi texnik muxandisi (X.Soliev)

4. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi infratuzilma ob'ektlaridan foydalanish bo'lim boshlig'i (M.Egamqulov)

5. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi bosh xisobchisi (J.Aralov)

6. "G'allaorol tuman Obodonlashtirish" boshqarmasi ombor mudiri (M.Raxmatullaev)

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 167945 на приобретение Жиззах вилоят Ғаллаорол туман Солин ҚФЙ Кичиксой ва Толлисой қишлоғининг 2.650 км ички йўлларини асфалт қилиш мақсадида лойиха смета ва экспертиза хужжатларини тайёрлаш

Способ проведения электронный

Дата 28.10.2022

Время рассмотрения 28.10.2022 12:20

Закупочная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAMARAXIMOV XANDAMIR ISKANDAROVICH | Бошлик | Ободонлаштириш |
| **Секретарь комиссии** | ARALOV JO'RAQUL XXX | Бош хисобчи | ободонлаштириш |
| **Член комиссии** | RAXMATULLAYEV MAXTUM ATABAYEVICH | Омбор мудири | Ободонлаштириш |
| **Член комиссии** | MALLAYEV ILXAM ABDUNAZAROVICH | Бош мухандис | Ободонлаштириш |
| **Член комиссии** | SALIYEV XASAN ABDUNAVIYEVICH | Техник назоратчи | Ободонлаштириш |
| **Член комиссии** | Egamqulov Maxmud Abduraxmonovich | Xodim | Ғаллаорол Ўрмон хужалиги ИТИ пистачилик илмий тажриба станцияси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 28.10.2022 года № лота 167945.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
| Подробное описание | Жиззах вилоят Ғаллаорол туман Солин ҚФЙ Кичиксой ва Толлисой қишлоғининг 2.650 км ички йўлларини асфалт қилиш мақсадида лойиха смета ва экспертиза хужжатларини тайёрлаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 35 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 35 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий кўрсаткичлари ва асосий воситаларга (офис, база, омборлар, ишлаб чиқариш цехлари, автогараж ва ҳ.к. ) эгалиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Молиявий кўрсаткичлари ва асосий воситаларга (офис, база, омборлар, ишлаб чиқариш цехлари,

автогараж ва ҳ.к. ) эгалиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 15 | 20 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 12 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 15 | суралган файл такдим етилди | 12 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 31000000 | 12 | Экспертная | | |

Критерий №2 Талабгор ташкилотнинг иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг иш тажрибаси

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 25 | 25O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 16 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 25 | so'ralgan fayl taqdim etildi | 20 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 25 | 31000000 | 12 | Экспертная | | |

Критерий №3 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлиги мавжуд эмаслиги хакида маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлиги мавжуд эмаслиги хакида маълумот.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 15 | 20 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 14 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 15 | суралган файл такдим етилди | 8 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 31000000 | 8 | Экспертная | | |

Критерий №4 Лойиха смета хужжатларини ишларини бажариш учун зарур техникалари ва кичик механизмларга эга эканлиги бўйича

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиха смета хужжатларини ишларини бажариш учун зарур техникалари ва кичик механизмларга эга эканлиги бўйича

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 15 | 25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 11 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 15 | суралган файл такдим етилди | 11 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 31000000 | 11 | Экспертная | | |

Критерий №5 Талабгорнинг объект билан танишганлиги, қурилиш объектини жойида ўрганганлик тасдиғи ҳамда Кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгорнинг объект билан танишганлиги, қурилиш объектини жойида ўрганганлик тасдиғи ҳамда Кафолат хати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 10 | 25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 10 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 10 | суралган файл тақдим етилди | 10 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 10 | 31000000 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №6 Ташкилотда фаолият юритувчи ишчи-ходимлар сони

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотда фаолият юритувчи ишчи-ходимлар сони

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ** | 20 | 25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 18 | Экспертная | | |
| **KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ** | 20 | суралган файл тақдим етилди | 14 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 20 | 31000000 | 13 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 35 000 000.00 | 33 000 000.00 UZS | 33 000 000.00 | 00.00 | 33 000 000.00 | 28.10.2022 09:08:29 | 3.0303 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ | 35 000 000.00 | 20 000 000.00 UZS | 20 000 000.00 | 00.00 | 20 000 000.00 | 27.10.2022 19:57:36 | 5 |
| SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ | 35 000 000.00 | 34 000 000.00 UZS | 34 000 000.00 | 00.00 | 34 000 000.00 | 27.10.2022 18:14:23 | 2.94118 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| "MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 62.7 | 3.0303 | 65.7303 |
| KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ | 71.25 | 5 | 76.25 |
| SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ | 76.95 | 2.94118 | 79.89118 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 167945 от 28.10.2022 года на приобретение Жиззах вилоят Ғаллаорол туман Солин ҚФЙ Кичиксой ва Толлисой қишлоғининг 2.650 км ички йўлларини асфалт қилиш мақсадида лойиха смета ва экспертиза хужжатларини тайёрлаш определила победителем:

SANGZOR PROJECT INVEST MCHJ
304961108

и резервный исполнитель: KOMFORT LIDER KAPITAL МЧЖ (304443846)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAMARAXIMOV XANDAMIR ISKANDAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | RAXMATULLAYEV MAXTUM ATABAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MALLAYEV ILXAM ABDUNAZAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | SALIYEV XASAN ABDUNAVIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | Egamqulov Maxmud Abduraxmonovich | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП